



**Nilufar MUSTAFAYEVA,**  
Termiz davlat universiteti doktranti, PhD  
E-mail: nilufar.mustafayeva@gmail.com

*NIU, Sho'rchi kampusi katta o'qituvchisi, PhD R.Xurramov taqrizi asosida*

## CHET TIL O'QITISHDA BLUM TAKSONOMIYASINI INTEGRATSIYA QILISH TAMOYILLARI

### Annotatsiya

Chet tilini o'qitishda zamonaviy metodlar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shulardan biri sifatida Bloom taksonomiyasini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. Taksonomiya bilim, tushunish, qo'llash, tahlil, baholash va yaratish kabi bosqichlardan iborat bo'lib, har bir bosqich o'quvchilarning kognitiv faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Chet tilini o'qitishda bu bosqichlarni ketma-ket qo'llash nafaqat lingvistik bilimlarni puxta egallash, balki kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** Bloom taksonomiyasi, o'qitish, metodika, ta'lim, lingvistik, fikrlash, ijod.

## INTEGRATION PRINCIPLES OF BLOOM'S TAXONOMY IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

### Annotation

The application of modern methods and pedagogical technologies in foreign language teaching is one of the key factors in enhancing the effectiveness of education. Among them, the integration of Bloom's taxonomy into the teaching process plays a particularly significant role. The taxonomy consists of stages such as knowledge, comprehension, application, analysis, evaluation, and creation, each of which serves to gradually develop students' cognitive activity. In foreign language teaching, applying these stages in sequence not only ensures the thorough acquisition of linguistic knowledge but also contributes to the formation of communicative competence, as well as the development of independent and creative thinking skills.

**Key words:** Bloom's taxonomy, teaching, methodology, education, linguistics, thinking, creativity.

## ПРИНЦИПЫ ИНТЕГРАЦИИ ТАКСОНОМИИ БЛУМА В ОБУЧЕНИЕ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

### Аннотация

Применение современных методов и педагогических технологий в обучении иностранным языкам является одним из важнейших факторов повышения эффективности образования. Особое значение имеет процесс интеграции таксономии Блума в учебный процесс. Таксономия включает этапы: знание, понимание, применение, анализ, оценка и создание, каждый из которых направлен на постепенное развитие когнитивной деятельности учащихся. Последовательное применение этих этапов в обучении иностранному языку способствует не только прочному усвоению лингвистических знаний, но и формированию коммуникативной компетенции, развитию самостоятельного и творческого мышления.

**Ключевые слова:** Таксономия Блума, обучение, методика, образование, лингвистика, мышление, творчество.

**Kirish.** Blum taksonomiyasi (Bloom's Taxonomy) ta'lim psixologiyasi va pedagogika sohasidagi eng nufuzli modellardan biri bo'lib, o'quv maqsadlarining ierarxik tasnifini taqdim etadi. Bu taksonomiya 1956 yilda Benjamin Blum rahbarligidagi ekspertlar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim jarayonining kognitiv (bilimga oid) jihatlarni sistemalashtirishga qaratilgan. Taksonomiyaning asosiy maqsadi o'quvchilarning bilim olish darajalarini aniq belgilash va yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Ilmiy nuqtai nazardan, bu model bixeviorizm va konstruktivizm nazariyalari orasidagi o'tish davrini ifodalaydi, chunki u o'quvchilarning faol ishtiroki va bilimni qayta qurishni ta'kidlaydi.

Taksonomiyaning ilmiy asosi Jan Piaje va Lev Vygotskiy kabi psixologlarning kognitiv rivojlanish nazariyalariga tayanadi. Piajening sxema va assimilyatsiya konsepsiyalari Blum taksonomiyasidagi bilim darajalarining asosi bo'lib, o'quvchilarning yangi ma'lumotlarni avvalgi bilimlarga ulashini ta'minlaydi.

Vygotskiyning proksimal rivojlanish zonasi esa taksonomiyaning yuqori darajalarida o'qituvchilarning yordam berish rolini ko'rsatadi. Bu model ta'limning ilmiy-tadqiqotiy jihatlarni kuchaytirib, o'quv jarayonining samaradorligini o'lchash uchun empirik metodlarni taklif etadi. Masalan, taksonomiyaga asoslangan testlar

o'quvchilarning kognitiv darajalarini statistik tahlil qilishga imkon beradi, bu esa ta'lim sifatini oshirishda muhimdir.

Taksonomiyaning reviziyalangan versiyasi 2001-yilda Lori Anderson va Devid Kravol tomonidan taqdim etilgan bo'lib, "A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives" nomli kitobda nashr etilgan. Bu reviziya original modelning nuqsonlarini to'g'rilashga qaratilgan, masalan, darajalarning nomlarini fe'l shakliga o'tkazish (eslash, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash va yaratish) va ierarxiyaning murakkabligini oshirish. Sintez darajasi yaratishga almashtirildi va baho berish o'rni o'zgartirildi. Bu o'zgarishlar ta'limning konstruktivist yondashuvi bilan moslashtirilgan, o'quvchilarning faol ishtiroki va kreativ fikrlashini ta'kidlaydi.

Reviziyalangan taksonomiyaning ilmiy ahamiyati shundaki, u bilim domenini ikki o'lchovli qildi: bilim turlari va kognitiv jarayonlar. Bu model o'quv maqsadlarining matritsasini yaratib, ta'limning samaradorligini ilmiy tahlil qilishga imkon beradi. Masalan, metakognitiv bilim o'quvchilarning o'z fikrlash jarayonlarini nazorat qilishini o'z ichiga oladi, bu Vygotskiyning refleksiya konsepsiyasi bilan hamohang.

**Tahlil va natija.** Chet tilini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, Bloom taksonomiyasini qo'llash bugungi kunda metodik

taraqqiyotning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki chet tilini samarali o'qitish jarayonida nafaqat til vositalarini o'zlashtirish, balki ularni turli darajadagi fikrlash bosqichlari orqali qo'llash, mustaqil nutqiy faoliyat yuritish va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bloom taksonomiyasi o'quv maqsadlarini tizimlashtirish, bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiluvchi universal model bo'lib, uni chet til o'qitish jarayoniga integratsiya qilish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Bloom taksonomiyasining asosiy g'oyasi shundan iboratki, har bir bilim o'zlashtirilishi ma'lum darajalar ketma-ketligida shakllanadi: bilimni eslab qolish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash va ijodiy yaratish. Chet til o'qitish metodikasi nuqtai nazaridan ushbu bosqichlarning har biri til o'rganuvchining nutqiy faoliyati va lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Masalan, boshlang'ich bosqichda yangi so'z va iboralarni eslab qolish, fonetik me'yorlarni to'g'ri talaffuz qilish o'quvchidan past darajadagi kognitiv jarayonlarni talab etsa, yuqori bosqichlarda matnni tahlil qilish, nutqiy vaziyatni baholash, turli ijtimoiy-madaniy kontekstlarda mustaqil ravishda yangi nutqiy birliklarni yaratish yuqori darajadagi kognitiv faoliyatni talab qiladi.

Shu boisdan Bloom taksonomiyasining barcha bosqichlarini chet til darslari jarayoniga integratsiya qilish nafaqat bilim berish, balki mustaqil fikrlovchi, ijodkor va faol kommunikator shaxsni tarbiyalash imkonini beradi [1].

Bloom taksonomiyasi va uni chet til o'qitish jarayoniga integratsiya qilish masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu model ta'lim samaradorligini oshirishda muhim metodologik vosita sifatida qaralmoqda. Pedagogik nazariyada taksonomiya o'quv maqsadlarini kognitiv, affektiv va psixomotor darajalarga ajratib, har bir bosqichni izchil rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuv sifatida shakllangan. O'zbek tadqiqotchilari bu g'oyani chet til ta'limi jarayoniga tatbiq etish orqali bilimlarni tizimlashtirish, ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish va natijada kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ilmiy asoslab berganlar.

Chet til o'qitishda Bloom taksonomiyasining integratsiyasi o'quv maqsadlarini aniq belgilash imkonini beradi. O'zbek olimlari ham bu borada muhim ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Masalan, A.Abduazizova o'z tadqiqotlarida ta'lim jarayonida kognitiv maqsadlarni belgilashning metodik ahamiyatini tahlil qilib, o'qituvchi o'z faoliyatida aynan maqsadni to'g'ri qo'yishi dars samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlaydi [2].

Shuningdek, O.Qo'chqorova chet tilini o'qitishda bosqichma-bosqichlik tamoyili va bilimlarni tizimli ravishda berish muhimligini alohida qayd etgan bo'lib, bu jihatlar Bloom taksonomiyasi asosiy g'oyasi bilan uyg'unlashadi [3].

Bloom taksonomiyasining dastlabki bosqichi - eslab qolish darajasida chet til o'qitishda lug'at boyligini shakllantirish, asosiy grammatik qoidalarni yod olish va fonetik normalarni o'zlashtirish asosiy vazifa bo'lib xizmat qiladi. Bu bosqichda talaba ko'proq mexanik yod olish va eslab qolish faoliyatini amalga oshiradi. Ammo mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun zamonaviy metodlardan foydalanish talab qilinadi.

Shu nuqtada, R. Rasulova til o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanishning samaradorligi haqida yozar ekan, yod olish jarayonini faollashtirish uchun o'yin texnologiyalari, vizual vositalar va muloqotga asoslangan mashg'ulotlarning muhimligini alohida ko'rsatadi [4].

Tushunish bosqichida o'quvchilar yangi bilimlarni izohlash, o'z fikri bilan bog'lash va misollar orqali tushuntirishni o'rganadi. Bu bosqichda chet tili darslarida matnlarni o'qish va qayta hikoya qilish, oddiy dialoglarni tuzish, savol-javob asosidagi mashqlar o'quvchilarning tushunish qobiliyatini rivojlantiradi.

Sh.Yuldasheva o'z ilmiy ishlarida chet tilida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarning tushunish darajasi oshishini, ular o'zlashtirgan bilimlarni kontekstda qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishini ta'kidlagan [5].

Keyingi bosqich - qo'llash darajasida o'quvchilar o'rganagan bilimlarini yangi vaziyatlarda tatbiq etishga o'rganadilar. Masalan, oddiy dialoglardan murakkab suhbatlarga o'tish, yozma topshiriqlarda grammatik qoidalarni qo'llash, real hayotiy vaziyatlarda muloqot qilish orqali qo'llash kompetensiyasi rivojlanadi.

M.Jalilova chet til o'qitishda kommunikativ yondashuvni qo'llash zarurligini ta'kidlab, aynan qo'llash bosqichi kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda hal qiluvchi o'rin tutishini ko'rsatadi [6].

Tahlil bosqichi esa yuqori darajadagi kognitiv faoliyatni talab qiladi. Bu bosqichda talaba matn mazmunini tahlil qilish, qiyoslash, qoidalarning farqli jihatlarini ajratish, ijtimoiy-madaniy kontekstni o'rganish orqali o'z fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tahlil qilishda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi kuchayadi. A.Qurbonova tadqiqotlarida tahliliy topshiriqlarning talabalarning til o'rganishga qiziqishini oshirishdagi roli va ularning intellektual rivojlanishiga ta'siri alohida qayd etiladi [7].

Umuman olganda, chet til o'qitishda Bloom taksonomiyasini integratsiya qilish talabalarda bilimlarni yod olishdan tortib, ijodiy faoliyatgacha bo'lgan bosqichlarni mukammal egallash imkonini beradi. Bu jarayon o'zbek ta'lim tizimida ham asta-sekin keng qo'llanilmoqda. Unga oid ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Bloom taksonomiyasining samarali integratsiyasi o'quvchilarning nafaqat til bilimlarini, balki tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, ijodiy yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu bois, ushbu yondashuvni metodik jihatdan puxta ishlab chiqish va amaliyotda muntazam qo'llash zamonaviy chet tili ta'limining muhim vazifasidir.

**Xulosa.** Chet til o'qitishda Bloom taksonomiyasini integratsiya qilish jarayoni ta'lim samaradorligini oshirish va o'quvchilarning bilimlarni bosqichma-bosqich egallashini ta'minlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu taksonomiya ta'lim jarayonida ko'plab nazariy va amaliy imkoniyatlarni yaratadi. Avvalo, u o'quv maqsadlarini aniq belgilashga yordam beradi, ya'ni o'qituvchi va talaba uchun bilim olishning aniq mezonlari belgilanadi. Bu esa dars jarayonini tizimli tashkil qilish va uni samarali baholash imkonini beradi. Shu jihatdan qaraganda, Bloom taksonomiyasining har bir bosqichi chet til o'qitish metodikasida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Eslab qolish bosqichi o'quvchilarda lug'at boyligini shakllantirish, fonetik me'yorlarni yodlash va grammatik qoidalarning asosiy ko'rinishlarini o'zlashtirish jarayonida namoyon bo'ladi. Bu bosqichda o'quvchi ko'proq mexanik yod olish faoliyati bilan shug'ullanadi, ammo uni samarali tashkil etish uchun interfaol metodlar, vizual vositalar va mashq topshiriqlaridan foydalanish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Tushunish bosqichida esa bilimlarni qayta ishlash va ularga izoh berish jarayoni amalga oshadi. Chet tili darslarida matnlarni o'qish, ularni qayta hikoya qilish, savol-javob mashqlarida ishtirok etish o'quvchilarning bilimlarni anglash darajasini mustahkamlaydi. Ushbu bosqich talabalarda bilimlarni real vaziyatlarda tushunish va qo'llashga tayyorlaydi.

Qo'llash bosqichi chet til ta'limida kommunikativ yondashuvni talab qiladi. Bu bosqichda o'quvchilar o'rgangan bilimlarini turli muloqot vaziyatlarida qo'llash, suhbatlarda faol ishtirok etish, yozma topshiriqlar orqali grammatik qoidalarini tatbiq etish orqali bilimlarini amalda sinab ko'radilar. Shu tariqa ular nafaqat lingvistik bilim, balki nutqiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar.

Tahlil qilish bosqichi yuqori darajadagi kognitiv faoliyatni talab qiladi. O'quvchilar matnlarni tahlil qilish, ularni qiyoslash, til birliklarining farqli jihatlarini ajratib ko'rsatish orqali mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradilar.

Bu jarayon chet tilni o'rganishda nafaqat lingvistik, balki mantiqiy va tanqidiy tafakkurni ham rivojlantiradi. Baholash bosqichi esa o'quvchilarning mustaqil qarashlarini shakllantirish, bilimlarni tanqidiy baholash va o'z fikrini dalillar bilan asoslash imkonini beradi. Bu bosqich chet til o'qitishda talabning faolligini, o'z nutqiy mahsulotlariga tanqidiy yondashuvini oshiradi. O'zaro fikr almashish, bahsmunozaralarda ishtirok etish orqali talabalar o'z bilimlarini chuqurlashtiradilar va o'zaro ta'lim muhitini shakllantiradilar.

Eng yuqori pog'ona - yaratish bosqichi esa talabning mustaqil ijodiy faoliyatini ta'minlaydi. Chet til o'qitishda bu bosqich insho yozish, esse tayyorlash, nutqiy chiqishlar qilish, yangi matn yaratish orqali amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda talaba nafaqat o'zlashtirgan bilimlarini namoyon etadi, balki ularni yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llash orqali shaxsiy kompetensiyasini rivojlantiradi.

Shunday qilib, Bloom taksonomiyasini chet til o'qitishga integratsiya qilish ta'lim jarayonini samarali va tizimli tashkil etishga imkon beradi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar bilimlarni eslab qolishdan tortib, ijodiy faoliyatgacha bo'lgan bosqichlarni mukammal o'zlashtiradilar. Eng muhimi, bu jarayon ularda nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil, baholash va ijodiy yondashuv kabi universal kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Shu boisdan, Bloom taksonomiyasining integratsiyasi nafaqat metodik, balki pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlovchi muhim tamoyil hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abduazizova A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 2003.
2. Abduazizova A. Innovatsion ta'limda kreativ fikrlash masalalari. - Toshkent: Fan, 2010.
3. Qo'chqorova O. Chet til o'qitish metodikasida bosqichma-bosqichlik tamoyili. - Samarqand, 2015.
4. Rasulova R. Chet til ta'limini samarali tashkil etishda interfaol metodlarning ahamiyati. - Toshkent: Fan, 2012.
5. Yuldasheva Sh. Matn bilan ishlash orqali chet til o'rgatishda samaradorlik. - Toshkent, 2016.
6. Jalilova M. Chet til ta'limini kommunikativ yondashuv asosida tashkil etish. - Toshkent: Fan, 2011.
7. Qurbonova A. Chet til o'qitishda tahliliy topshiriqlarning ahamiyati. - Buxoro, 2017.